

NUTQ VA GENDER STEREOTIPLAR

U.Raximova

TerDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası v.b.dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19279190>

Annotatsiya. *Lingvopersonologik tadqiqotlarning natijalarida aniqlanishicha, biror bir shaxsning nutqi boshqasini takrorlamaydi. Shaxs nutqiga ta'sir etuvchi tipologik, yosh xususiyatlari, psixologik, gender, hudud, tanlagan kasb-kor yoki hunar, ma'lumotlilik kabi omillar mavjuddir. Individual shaxs nutqiga sanab o'tganlarimizdan tashqari ta'lim-tarbiya, u o'rgangan yoki o'rganayotgan chet tili, o'zining va u yashab turgan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy ahvoli, milliy hamda umummilliy madaniy meros, qadriyat, an'ana kabilarga, kishilarning yoki o'zining etnik jihatlariga, to'g'rirog'i, inson zoti bilan bog'liq bo'lgan jamiki omillarga ham bog'liq ekanligi sir emas. Ushbu maqolada shaxs nutqiga ta'sir etuvchi gender omillar xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Individual shaxs nutqi, gender omil, nutq, erkak nutqi, ayol nutqi, stereotip, til, so'z, tilshunoslik.*

Jahon tilshunosligida gender muammosi turli aspektlarda o'rganiladi. Nutq va gender stereotiplari — bu jamiyatda erkaklar va ayollar nutqi haqida shakllangan an'anaviy qarashlar, kutilmalar va tasavvurlardir. Ya'ni, odamlar ko'pincha “erkaklar shunday gapiradi”, “ayollar bunday gapiradi” degan qolip asosida fikr yuritadilar.

Gender – umumiy mazmuniga ko'ra erkak va ayollar o'rtasidagi farq. Ikkala jins vakillari nutqiy xulqini jahon tilshunosligida nemis olimi Joul Oates o'zining “Ayol, erkak va til” asarida ham ayol va erkaklarning nutqidagi o'zaro farqlanuvchi jihatlarni ochib beradi. U ko'proq ayol va erkaklardagi salbiy va ijobiy konatassiyalarni olib, o'zaro qiyoslab gender nuqtai nazardan taxmin qiladi.

Ayollar nutqi ko'proq hissiy, ohangdor deb tasvirlanadi, erkaklar nutqi esa vazmin va qat'iy deb qaraladi.

Ayollar ko'proq suhbatni davom ettirishga, hamdardlik bildirishga moyil; erkaklar esa axborot berishga va hukm chiqarishga yo'naltirilgan degan stereotip mavjud. Erkaklar o'rtasidagi o'zaro nutq siyosiy mavzular, dunyoda bo'layotgan yangiliklar, sport va mashinalar haqida kechadi. Shuningdek, nutqlarida ko'proq bosiqlik, vazminlik va ular ruhiyatida boshqaruvchilik aks etib turadi. Ayollar nutqida ko'proq nolish, hasrat qilish uy-ro'zg'or, oila, turli buyum kabi mavzular uchraydi. Ayollar o'z xursandchiligini bazan yuqori darajadagi emotsiya va turli noverbal hodisalar (qichqirib yuborish, qarsak chalish kabi holatlar. Bunday holatlar asosan, qizlarda uchraydi) orqali namoyon etsa, erkaklar o'z quvonchini bosiqlik bilan ifodalaydi.

Ammo shaxsning salbiy xislati bo'lmish jahl qilish, g'azablanish ayollarga nisbatan erkaklarda kuchliroq namoyon bo'ladi. Ayollar jahli chiqqanini sukut saqlash, jim turish bilan ifodalasa, erkaklar ko'pincha o'z g'azabini baqirish, so'kish va boshqa noverbal hodisalar orqali namoyon etadi.

Ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xos jihati qarg'ish va so'kishlarni yosh jihatdan taqqoslaganda ayollar nutqidagi qarg'ishlar 40 yoshdan oshgan ayollar o'rtasida ko'proq uchraydi.

Masalan,

— O'g'lim, hali san eshitdingmi, yo'qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek ma'lumki, ularning"qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini" albatta bilar edi. Shundoq ham bo'lsa bilmaganga solindi:

— Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas, — dedi.

Hoji o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi.

Istehzo aralash xotinig'a qarab oldi. Yana orag'a jimjitlik kirdi. Bu so'zsizlik ma'nosig'a O'zbek oyim tushuna olmag'an edi. Bir oz qarab o'lturg'ach, yuragi qaynab ketkandek bo'ldi:

— Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig'a unashib qo'ydiq... Endi san bilan to'y maslahatini qilishmoqchi edik...

Otabek onasig'a bir og'iz so'z demay, ma'nolik qilib otasig'a qarab oldi. Hoji uyatliksumon "shundog'" deb qo'ydi.

— Sizlarni ranjitib bo'lsa ham bir martaba uylangan edim-ku? Endi...

— San uylansang biz ranjirmidik? — dedi kulib hoji.

— Ranjimasalaringiz...

Hoji tuzuklanib o'lturib oldi:

— Bu ranjishdan emas, hojatdan o'g'lim.

— Nima hojat?

— Hasanalining so'ziga qarag'anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan.

O'g'il o'sdirib katta qilg'an onangning bo'lsa oldig'a kelin qo'yg'usi keladir...

Otabek onasig'a qaradi:

— Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo'lardiku, — dedi.

O'zbek oyim marg'ilonliq tomonidan sihrilangan o'g'lig'a qarshi qizishib ketdi. Bir yillardan beri ichiga yig'ib kelgan kinasini to'kib berdi:

— Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag'an edim... San bizning naslimizni ko'tarish o'rniga, yerga urib bulg'ading. Biz sani Marg'ilon andisiga bunchalik mukkadandan ketishingni o'ylamag'an edik, adabsiz... o'zingga qolsa shu marg'ilonliqni xoting'a hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz!..

Otabek ham qizishdi:

— Xotin bo'lmasa nima, axir?!

— Qoshliq, ko'zlik bir andi!

— Andi deganingiz nima o'zi?

Yusufbek hoji o'g'lini bosish o'rniga javob ber, degandek qilib iljaygan holda xotiniga qaradi. O'zbek oyim "andi" ma'nosini bildirib, andilarning sihrini rad qilish uchun bir oz tutiliqib qiynaldi:

— Andi... andi... o'zi xitoyimi, nima balo... o'zi qalmoqdan tarqag'an bo'ladir...

Tushunmagan bo'lsang, lo'lilarning bir toyifasi...

Albatta, erkaklar nutqiga bosiqlik, vazminlik, ayollar nutqiga esa nolish, hasrat qilish kabi holatlar mos deya keskin fikr bildirish nisbiydir. Shuningdek, bunday holatlarni farqlashda, yuqorida aytib o'tganimizdek, shaxsning ijtimoiy holatini ham inobatga olmoq zarur. Masalan, o'qimishli, ziyoli o'qituvchi ayolning suhbatini bilan oddiy uy bekasining nutqida farq bo'ladi.

Gender tadqiqotlari lisoniy faoliyat sub'ektini ijtimoiy biologik maqomga ega bo'lgan shaxs sifatida ta'riflash maqsadini nazarda tutib, u sotsiologvistikaning ajralmas qismidir, deya munosabat bildirish mumkin.

Gender atamasi – har qanday jamiyatda erkak va ayol jinsiga xos boʻlgan shaxsga nisbatan anglashiladigan xatti-harakatlar va nuqtayi nazarlar birligidir. Gender yoʻnalishi markazida ham inson va uning nutqini tadqiq etish muhim obʻektlardan hisoblanadi.

Gender tilshunosligi biror jinsga mansub shaxsning ijtimoiy jarayonlarda yoki hayotning boshqa jabhalarida bajaradigan roli bilan bogʻliq muammolarni oʻrganadi. Gender yondashuv erkaklar va ayollar oʻrtasidagi biologik yoki jismoniy farqlarga emas, balki mazkur jamiyat tomonidan belgilangan madaniy va ijtimoiy ahamiyatga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlarni gender tahlilida gender nomunofiqlik aniqlanadi.

“Gender” tushunchasining mazmuni, avvalo, jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan ijtimoiy jins, ijtimoiy amaliyot yordamida tashkil qilinadi. Gender ijtimoiy jinsning madaniy niqobi, bizning oʻz ijtimoiy madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir.

Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va nuqtayi nazarning xilma-xilligiga qaramay ikkita konsepsiyani ajratib koʻrsatish mumkin. “Tilshunoslikda gender parametrlarining qoʻllanilishini tadqiq etish tilshunoslikning ayol yoki erkaklarga xos konstruktiv tamoyillarini oʻrganishda ham muhim ekanligi oʻz isbotini topgan. Lingvistikada genderologik tadqiqotlardan koʻzlanadigan asosiy maqsad ayollar va erkaklar nutqiga xos boʻlgan, shuningdek, har ikkala jins vakillariga xos uslubda voqelangan yozma yoki ogʻzaki nutqlarni farqlash koʻrinishidagi “lisoniy asimmetriya” hodisasining turlari va sabablarini aniqlashdir. Ogʻzaki soʻzlashuv nutqidan tortib, yozma shaxs nutqlarigacha turli tarzda oʻziga xosliklar mavjuddir. Shaxs nutqlarining tuzilishi tekshirilganda, ayollar va erkaklar nutqining fonetik, leksik-frazeologik, stilistik va boshqa turdagi farqlari yaqqol koʻzga tashlanadi. Ayol yoki erkaklar nutqidagi, ularning lisoniy faoliyatidagi individual xususiyatlarni aniqlash, bu borada samarali tahlil va tadqiq ishlarini olib borish talab etiladi.

Mutaxassislar haqli ravishda taʼkidlaganidek, istalgan turdagi shaxs nutqi genderologiya nuqtayi nazaridan oʻrganilganda, muallif tomonidan amalga oshiriladigan til birliklari tanlovining sotsial, etnomadaniy sabablarini aniqlashga imkoniyat yaratiladi.

Oʻzbek tilida faqatgina ayollarga xos boʻlgan soʻzlashuvning gender xususiyatlari, ayrim xorijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos boʻlishi mumkin. Bu fikrni dalillash kelgusida oʻzbek tilining gender xususiyatlarini oʻrganuvchi tadqiqotchilar zimmasiga tushadi.

Tilshunoslikda gender xususiyatlarning oʻrganilishida qiyosiy tahlil usullaridan unumli foydalanish kutilgan natijalarni berishi shubhasiz. Nutq va gender stereotiplari — bu jamiyat yaratgan tasavvurlar boʻlib, ular har doim ham haqiqatni toʻliq aks ettirmaydi. Har bir insonning nutqi uning shaxsiyati, tajribasi va muhitiga bogʻliq holda shakllanadi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Baskakova L.V. Языковaya lichnost A.P. Chexova (na materiale zapisных knijek i dnevnikov pisatelya). Antropolingvisticheskaya paradigma v filologii. Stavropol, 2003. Chast 2.
2. Вопросы lingvopersonologii. Barnaul: Izd-vo Alt. gos. un-ta, 2007. Chast 1.
3. Golev N.D. Lingvopersonologicheskaya variativnost yazyka // Izv. Alt. gos. un-ta. 2004. № 4 (44). Str. 415.
4. Karimova N. Oʻzbek tilida gender leksikasi. Toshkent: 2017.Fan.